



## TALABALARDA HARBIY-VATANPARVARLIK RUHINI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

**Salimov Javohir Abdumo'min o'gli**

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika  
universiteti magistranti*

**Mavzuning dolzarbligi.** Dunyo miqyosida kechayotgan murakkab integratsiya jarayonlari fonida navqiron avlodda vatan mudofaasiga tayyorlik va vatanparvarlik hissini shakllantirish strategik ahamiyatga ega bo'lib, u mamlakat barqarorligining kafolati sifatida namoyon bo'lmoqda. Jamiyatda mafkuraviy tahdidlar, axborot xurujlari va turli g'oyaviy qarama-qarshiliklar kuchayib borayotgan bir davrda talaba-yoshlarda Vatanga sadoqat, milliy g'urur, fuqarolik mas'uliyati va yurt himoyasiga tayyorlik sifatlarini shakllantirish muhim pedagogik vazifaga aylanmoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlar mamlakatning intellektual va harbiy salohiyatini belgilovchi asosiy ijtimoiy qatlam sifatida e'tirof etiladi.

**Tadqiqotning maqsadi:** Talabalarda harbiy-vatanparvarlik ruhini shakllantirishning innovatsion yondashuvlarga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari va usullari.** Tadqiqot davomida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining mazmun-mohiyati va psixologik-pedagogik qonuniyatlari nazariy tahlil qilindi. Talabalarda milliy g'urur va burchga sadoqat sifatlarini rivojlantirishda Sharq allomalari hamda mutafakkirlarining (Abu Nasr Forobiy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy va b.) harbiy-tarbiyaviy merosidan foydalanish imkoniyatlari o'rganildi. Ishda pedagogik-nazariy tahlil, qiyosiy-mantiqiy o'rganish va pedagogik modellashtirish usullari qo'llanildi.

### **Asosiy natijalar va muhokama:**

*Nazariy va milliy-ma'naviy omillar:* Talabalarda harbiy-vatanparvarlikni shakllantirish nafaqat harbiy bilimlarni berish, balki ularning psixologik tayyorgarligi va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq. Sharq allomalarining harbiy san'at, jasorat va vatanparvarlikka oid qarashlarini o'quv fanlari mazmuniga integratsiya qilish talabalarning kasbiy motivatsiyasini oshiradi.

*Metodik shart-sharoitlar va pedagogik texnologiyalar:* Harbiy-vatanparvarlik ruhini samarali shakllantirish uchun tegishli metodik muhit yaratilishi zarur. Interfaol pedagogik texnologiyalar (Muammoli ta'lim, Case-study, Jigsaw, situatsion



simulyatsiyalar va harbiy-taktik mantiqiy o'yinlar) talabalarda tezkor qaror qabul qilish va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini jadal rivojlantiradi.

*AKT va multimediya vositalari:* O'quv mashg'ulotlarida multimediya majmualari, interfaol taqdimotlar hamda raqamli resurslardan foydalanish harbiy-nazariy tushunchalarni va taktik tayyorgarlik elementlarini ko'rgazmali va chuqur o'zlashtirish imkonini beradi.

### **Xulosa va tavsiyalar.**

Mazkur dissertatsiya ishida talabalarda harbiy-vatanparvarlik ruhini shakllantirishda innovatsion yondashuvlardan foydalanishning nazariy asoslari, metodik imkoniyatlari hamda amaliy samaradorligi kompleks tarzda o'rganildi. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi umumiy xulosalarga kelindi:

talabalarda harbiy-vatanparvarlik ruhini shakllantirish zamonaviy ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biri bo'lib, ushbu jarayonni samarali tashkil etishda innovatsion pedagogik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

harbiy-vatanparvarlik ruhini shakllantirish jarayoni faqat nazariy bilim berish bilan cheklanmasdan, balki talabalarning shaxsiy tajribasi, faol ishtiroki va ijtimoiy faoliyatini o'z ichiga olgan kompleks pedagogik tizim asosida amalga oshirilishi lozim.

tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan innovatsion yondashuvlar (tarixiy xotira, ma'naviy qadriyatlar, til va adabiyot, fuqarolik mas'uliyati, harbiy tayyorgarlik va zamonaviy dunyoqarash yo'nalishlari) talabalarda vatanparvarlik ruhini shakllantirishda samarali vosita ekanligi aniqlandi.

axborot-kommunikatsion texnologiyalar, interaktiv metodlar va multimedia vositalaridan foydalanish talabalarning qiziqishini oshirish, ularning bilimlarini mustahkamlash hamda amaliy faoliyatga yo'naltirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

tajriba-sinov ishlari natijalari innovatsion yondashuvlarning samaradorligini tasdiqlab, talabalarda harbiy-vatanparvarlik ruhining rivojlanish darajasi sezilarli darajada oshganligini ko'rsatdi.

### **Amaliy tavsiyalar:**

Oliy ta'lim muassasalarida harbiy-vatanparvarlik ruhini shakllantirish jarayoniga innovatsion pedagogik yondashuvlarni tizimli ravishda joriy etish maqsadga muvofiq.

Harbiy ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, AKT va multimedia vositalaridan keng foydalanish orqali talabalarning faolligini oshirish zarur.

Ta'lim jarayonida milliy qadriyatlar, tarixiy meros va madaniy an'analarga asoslangan tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish lozim.



Talabalarning harbiy-vatanparvarlik ruhini rivojlantirishda nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirgan mashg'ulotlar, loyihalar va treninglar tashkil etish tavsiya etiladi.

Ishlab chiqilgan metodik tavsiyalarni boshqa oliy ta'lim muassasalarida ham joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2023-yil 29-iyundagi 267-sonli qarori.
2. Tursunov Shaxzod Ramazonovich "Talabalarda vatanparvarlik ruhini shakllantirishda innovatsion yondashuvlar" mavzusidagi (PhD) falsafa fanlari doktori dissertatsiyasi. 2023-yil
3. M.R.Ismoilovich 2023-yilda "Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences" ilmiy jurnalida chop etilgan "Talaba - yoshlarda harbiy vatanparvarlikni artpedagogika vositasida rivojlantirishning nazariy - metodologik asoslari"
4. [www.Lex.uz](http://www.Lex.uz)
5. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
6. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
7. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)